INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
Volume 1,issue 1,2023

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MASALA YECHISH KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Karimova Kamola Komil qizi
Buxoro viloyati Shofirkon tumani 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya
Ushbu maqolada masala yechish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda qanday ko‘nikmalarni shakllantirishi hamda axborot texnologiyalarini masalaning qaysi qismida, qanday qo‘llay haqida usuliy tavsiyalar beriladi.

Abstract
This article provides methodical recommendations on how to use information technologies in the process of problem solving and how to use information technologies in which part of the problem.

Аннотация
В данной статье даны методические рекомендации о том, как использовать информационные технологии в процессе решения задач и как использовать информационные технологии в какой части проблемы.

Kalit so‘zlar: matematik savodxonlik, masala, axborot texnologiyalari, kompetensiya, tasavvur, Power Point, vaqt, masofa.

Keywords: mathematical literacy, problem, information technology, competence, imagination, Power Point, time, distance.


Ключевые слова: математическая грамотность, задача, информационные технологии, компетентность, воображение, Power Point, время, расстояние.

Insoniyat umrining katta qismini ilm olish, o‘z ustida ishlash, yukshalish uchun sarflaydi. Doimo o‘zi munosib deb bilgan pozitsiyasini egallash uchun harakatda bo‘ladi. Maktab davridanoq o‘quvchining turli muammolarga yechim topa olishni o‘rganishini, mustaqil fikr yurita olishini, vaziyatni turli jihatdan analiz qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishni kafolatlaydigan omillarning biri sifatida matematikani aytish mumkin. Shuning uchun o‘quvchini to‘laqonli matematik savodxonlik bo‘yicha tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Matematikani o‘rganish qat’iyatni, diqqatni jamlay olish qobiliyatini talab qiladi. Chunki matematika tarkibiga kiruvchi har bir topshiriqni o‘rganuvchi muntazam ravishda o‘z ishlashi hamda har bir jarayonni e’tibor bilan muhokama qilishiga to‘g‘ri keladi. Demak, matematik savodxonlik o‘quvchining turli masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematik bilimlarni qo‘llagan holda ifodalay olish, muammoni yechishda matematik bilimlardan foydalanish qobiliyati hisoblanadi. Matematik bilimlardan kundalik hayotda samarali foydalanish olish hamda mantiqiy, kreativ fikrlashni o‘stirish o‘quvchidan mustahkam bilimni talab etadi. O‘quvchilarda yuqori matematik savodxonlikni shakllantirishda masalaning o‘rni beqiyos. Masala ustida ish olib borishda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi nafaqat jarayonni osonlashtiradi, balki o‘quvchilarda yuzaga keladigan muammoli holatlarning ham oldini olishga xizmat qiladi.

10-masala. Poyezd 8 soatda 432 km, velosipedchi esa xuddi shunday masofani 18 soatda bosib o‘tadi. Poyezd tezligi velosipedchining tezligidan qanchaga katta?

Harakatga doir masalalar doim o‘quvchilarda bir qancha muammolar keltirib chiqaradigan masala turkumlariga kiradi. Bunday masalalarni yechish jarayonida masalani ketma-ketlikda harakatli tasvirlar orqali o‘quvchilarga namoyish etish ularning masala bilan bog‘liq har bir detalni

mukammal tushunishlarini ta’minlaydi. Power Point imkoniyatlari yordamida jonli tasvir yaratish ayni muddao.



Masofa ikkala transport uchun ham bir xil ekanligini o‘quvchilar tasvir orqali yaqqol anglab oladilar. Poyezd harakatlanib, yo‘lni to‘liq bosib o‘tadi va ekranda 8 soat chiqadi. O‘quvchilar tezlikni aniqlab oladilar. So‘ng velosipedchi harakatlanib, masofani to‘liq bosib o‘tadi va 18 soat degan yozuv chiqadi. O‘quvchilar velosipedchining ham tezligini aniqlab oladilar. Ularning tezligi o‘rtasidagi farqni ham darrov topadilar. Masalani harakatga keltirish o‘quvchilarda tasavvurni aniq hosil qiladi va bir qancha ko‘nikmalar shakllanishiga xizmat qiladi.


5-masala. Xivadagi yodgorliklarni ko‘rish uchun 5 soat-u 45 minut, tushlikka 35 minut, bozorga borish uchun yodgorliklarni ko‘rishdan 2 soat-u 50 minut kam vaqt rejalashtirilgan. Agar sayohatchilar mehmonxonadan 9:00 da chiqqan bo‘lsa, ular soat nechchida qaytib kelishadi?

Vaqtga doir masalalarni bo‘laklarga bo‘lib tahlil qilish mummoni xatolarsiz yechish imkonini beradi. Ayniqsa, masalaning har bir detalini chuqur tahlil qilib, ekranda namoyon qilish aytib o‘tishdan ko‘ra ko‘proq o‘z samarasini beradi.



Har bir ketgan vaqtni chiqqan paytdagi soatga qo‘shib borish harakatli tarzda kechadi. Shunda o‘quvchilar chalkashmasdan masala yechimini topa oladilar. Har bir milning harakatiga alohida-alohida izoh berib tushuntirilsa, o‘quvchilar vaqt va soat bilan bog‘liq masalalarnigina emas, kundalik hayotda soatga aloqador barcha vaziyatlarda muammoni to‘g‘ri hal qila oladilar. Ko‘rsatib berish va kichik detallargacha tushuntirib borish o‘quvchilardagi vaqt birliklariga doir bilimlarni mustahkamlashga ancha yordam beradi.

4-masala. Uydan maktabgacha bo‘lgan masofa 64 m. Ziyoda shu masofaning 36 metrini bosib o‘tdi. U yana necha m yurishi kerak?




Masalada qizcha uy tomondan harakatga kelib yura boshlaydi va ma’lum nuqtaga yetganda to‘taydi. Ekranda 36 m yozuvi chiqadi. Yo‘lning qolgan qismida so‘roq belgisi ko‘rsatiladi. O‘quvchilar qolgan masofani topish uchun Ziyodaning bosib o‘tgan yo‘lini 64 m dan ayirish kerakligini ongli ravishda tushunadilar.

3-masala. Sinfda 33 nafar o‘quvchi bor. Agar har bir parta 2 nafardan o‘quvchi o‘tirishiga

mo‘ljallangan bo‘lsa, jami nechta parta kerak bo‘ladi?

Shu o‘rinda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda masala shartini ochib berish maqsadga muvofiq. Masalani bu tarzda muhokama qilish ham qoldiqli bo‘lish ham masala mohiyatini ongli ravishda tushunish uchun zamin yaratadi. Shu bilan birgalikda o‘zlashtirish past bo‘lgan o‘quvchilarni ham darsga jalb qilish imkonini beradi.




2 nafar o‘quvchi uchun 1 ta parta to‘g‘ri kelsa, 33 nafar o‘quvchi uchun nechta parta to‘g‘ri kelishini topish uchun 33 ni 2 ga bo‘lish kerak ekanligi va 33 2 ga to‘liq bo‘linmasligi hamda qoldiq qolishini o‘quvchilar tushunib yetadilar.

4-masala. Besh qavatli uyda Anvar Farhoddan yuqorida, lekin Sarvardan pastda yashaydi. Komil esa Farhoddan pastda yashaydi. Komil uyning 2-qavatida yashasa, Anvar qaysi qavatda yashaydi?

Masala shartidagi ism va yo‘nalishlarning chalkash holatda berilishi o‘quvchilarning masala bo‘yicha mulohaza yuritishini biroz qiyinlashtiradi. Shuning uchun axborot texnologiyalariga murojaat qilish ayni muddao. Power point yoki Flash dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib, mulohazalar ketma-ketga ekranga namoyish qilinsa, o‘quvchilar chalkashlikni darrov yechadilar va keyingi jarayonlarda ham tasavvurlaridan foydalanib, ketma-ketlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib, yechimni topishga harakat qiladilar.



2-masala. Mototsiklchi 8 soat davomida yo‘l yurdi. Birinchi 5 soatda u 65 km/h tezlikda, qolgan vaqtda esa 70 km/h tezlikda yurdi. U qancha masofani bosib o‘tgan?



Masalani yechish jarayonida uni bo‘laklarga bo‘lib o‘quvchi ko‘z o‘ngida shakllantirish masala mazmunini aniq tushunilishiga yordam beradi. O‘quvchilar masalada nima haqida gap ketayotganini yaqqol tushunib yetadi. Masofani hammasi bo‘lib 8 soatda bosib o‘tilganligi, 8 soatning 5 soati 65 km/h tezlik bilan, qolgani 70 km/h tezlik bilan bosib o‘tilganligini alohida qilib ko‘rsatish o‘quvchida ikki xil tezlik bilan bosib o‘tilgan masofalar farq qilishini tezlik bilan bog‘lagan holda aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva F.N. Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayonlari. Boshlang‘ich ta’limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. - Buxoro. 2021. -300 b
2. I.V. Repyova. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, Matematika 1-sinf darslik 1-qism 2023.- 128b.
3. I.V. Repyova. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, Matematika 1-sinf darslik 1-qism 2023.- 128b.
4. L. O‘rinboyeva, Sh. Ismailov, X. Yuspov, N. Ruzikulova, U. Raxmonov va b. matematika 3-sinf.- Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.-192 b.
5. Abdullayeva B. S., Saidova M. J. Matematika o‘qitish metodikasi. Darslik. 2022, - 485 b.
6. Saidova M. J. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish: Ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2020.- 142 b.
7. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
8. www.ziyonet.uz